



Maftuna NORQULOVA,
ToshDO'TAU o'qituvchisi
E-mail: norqulovamaftuna@navoiy-uni.uz

PhD M.Asadov taqrizi asosida

AHMAD A'ZAM QISSALARI SARLAVHASINING BADIY VAZIFASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Ahmad A'zam qissalari sarlavhasining badiiy vazifasi haqida atroflicha so'z yuritilgan. Adib ijodida sarlavha oddiy nomlash vositasi emas, balki asar mazmunini ixchamlashtiruvchi, ramziy va falsafiy ma'nolarni o'zida aks ettiruvchi estetik birlik sifatida keladi. "Quroq", "Hali hayot bor...", "Bu kunning davomi", "Asqartog' tomonlarda" kabi qissalarning sarlavhasi qisqa va ixcham bo'lishiga qaramay, yuzlab sahifalarga yoyilgan mazmunni umumlashtiradi, kitobxonni ichki mushohadaga undaydi. Tadqiqot davomida Ahmad A'zam sarlavhalarining ramziy ma'nolari, vaqt, umid, iztirob va ma'naviy yuksalish kabi g'oyalarni mujassam etishdagi vazifasi yoritiladi. Natijada, adib qissalari sarlavhalari o'zbek nasrida poetik yangilanish va badiiy tafakkurning o'ziga xos ifodasi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Uslub, sarlavha, detal, obraz, xronotop, xotira-qissa, voqelik.

THE ARTISTIC FUNCTION OF TITLES IN AHMAD A'ZAM'S NOVELLAS

Annotation

This article provides a scholarly analysis of the aesthetic characteristics of titles in Ahmad A'zam's novellas. Within the author's poetics, the title functions not merely as a conventional labeling tool, but as a condensed aesthetic construct that encapsulates the narrative essence and unveils its symbolic and philosophical strata. Titles such as "Quroq", "Hali hayot bor...", "Bu kunning davomi", and "Asqartog' tomonlarda", though concise in form, summarize the expansive thematic and conceptual content developed throughout the works, guiding the reader toward reflective interpretation. The research elucidates the symbolic dimensions embedded within these titles and their role in foregrounding thematic notions including temporality, hope, spiritual striving, and existential distress. Ultimately, the titles of Ahmad A'zam's novellas are evaluated as distinct markers of poetic innovation and a refined mode of artistic cognition within contemporary Uzbek prose.

Key words: Style, title, detail, image, chronotope, memory-novel, reality.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФУНКЦИЯ ЗАГолоВКОВ ПОВЕСТИЙ АХМАДА АЗАМА

Аннотация

В данной статье анализируются художественные особенности заголовков повестей Ахмада А'зама. В творчестве писателя заголовок рассматривается не просто как средство номинации, а как эстетическое единство, которое концентрирует содержание произведения и раскрывает его символические и философские пласты. Несмотря на краткость и лаконичность, такие заголовки, как «Курок», «Хали хаёт бор...», «Бу куннинг давоми», «Асқартог' tomonlarda» обобщают идеи, развёрнутые на десятках и сотнях страниц, и побуждают читателя к внутренним размышлениям. В ходе исследования освещаются символические уровни заголовков писателя, их роль в выражении идей времени, надежды, страдания и духовного возвышения. В итоге заголовки повестей Ахмада А'зама оцениваются как своеобразное проявление поэтического обновления и художественного мышления в узбекской

Ключевые слова: Стиль, заглавие, деталь, образ, хронотоп, повесть-воспоминание, действительность.

Kirish. Badiiy asarning estetik butunligini ta'minlashda sarlavha alohida o'rin tutadi. U badiiy matnga kirish eshigi bo'lib, unda asarning asosiy mazmun-g'oyasi qisqa va lo'nda ifoda etiladi. Kompozitsiya asarning tashqi tomondan qurilishi bo'ladigan bo'lsa, sarlavha shu qurilishning eng muhim bo'lagi hisoblanadi va u matn bilan bevosita bog'liq. "Aniqlik va qisqalik nasrning birinchi ustunligidir. U fikrni talab etadi. Busiz go'zal hikoya hech narsaga xizmat qilmaydi. Asar sarlavhasi bir yoki bir nechta so'zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan fikrni o'zida aniq, nomlanishidanoq o'quvchini o'ziga jalb qilishi lozim. Bu juda ham azobli, ayni chog'da rohatlidir"[1]. Badiiy asarga sarlavha tanlash yozuvchi ijodiy laboratoriyasida eng mas'uliyatli daqiqalardan biri hisoblanadi. Zero, sarlavha ixchamlikda katta mazmunni jamlaydi, ko'plab sahifalarga yoyilgan g'oyani birgina so'z yoki ibora vositasida kitobxonga ochib beradi.

Adabiyotshunos U.Rasulova "XX asr o'zbek qissachiligi" nomli tadqiqotida sarlavha xususida so'z yuritir

ekan, shunday deydi: "Sarlavha asardagi asosiy ma'no qatlamiga ishora berib, muallif bilan kitobxonning ichki muloqotini jadallashtiradi"[2]. Sarlavha bir tomondan badiiy asarni boshqa asarlardan ajratib turuvchi muhim unsur bo'lsa, boshqa tomondan esa, asarning g'oyaviy-estetik mohiyatini ixcham tarzda ifodalaydi. Shuningdek, sarlavha o'quvchini asarning mazmunini idrok etishga, chuqurroq anglashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek adabiyotida Ahmad A'zam ijodi o'ziga xos uslub, ramziy tasvir va ichki dramatism bilan ajralib turadi. Adib qissalarida sarlavha matn mazmunini ixcham ifodalabgina qolmay, balki muallifning hayot haqidagi falsafiy qarashlari, o'y-mushohadalari, inson va jamiyat munosabati kabilarni badiiy tarzda aks ettiradi.

Adibning "Hali hayot bor...", "Bu kunning davomi", "Quroq", "Asqartog' tomonlarda" kabi qissalarini o'qir ekanmiz, asar qahramonlari ziyoli qatlam vakillari ekaniga guvoh bo'lamiz. Adib bu muhitdagi xunrezliklar, poraxo'rlik,

ilmsizlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlar haqida fikr yuritar ekan, qissa bosh qahramonlari xulq-atvorini ularning muhitga bo'lgan munosabati, axloqiy qarashlarida ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Adibning “Hali hayot bor...” qissasi hayotiy haqiqatlarni badiiy ifodalagan va nozik aks ettirgan asardir. Qissa markazida yosh ijodkor va muxbir – A'lamning hayoti, ish faoliyati turadi. Barcha voqealar shu qahramon atrofida kechadi. Qissa syujeti bir kunlik voqealarni o'z ichiga olsa-da, unda o'tmish voqealari ham esga olinadi. Adabiyotshunos Komiljon Hamrayev “Hikoya kompozitsiyasi” nomli tadqiqotida badiiy asar sarlavhasi haqida fikr yuritar ekan, shunday mulohazalarini bildiradi: “Ijodkor matn mazmunini ma'lum bir so'z, yoxud jumlagi jo qilar ekan, badiiy asar mohiyatini sarlavhaga yashiradi. Boshqacha aytganda, sarlavha ijodkorning badiiy niyati, asar g'oyasi, obrazlar tizimi va barcha unsurlarni yagona fokusga jamlovchi mitti asardir”[3]. “Hali hayot bor...” qissasi mazmunan siqilgan, bo'g'ilgan, nohaq tizim haqida bo'lsa-da, sarlavha aksincha, hali bu hayotdan umid borligini, hali hayot davom etayotganligini bildiradi. O'zbek adabiyotida “hayot” so'zi ko'pincha qadriyat, kurash, iztirob va sevgi tushunchalari bilan bog'langan. Muallif mazkur qissa sarlavhasiga yangicha mazmun-mohiyat yuklaydi. A'lam personaji orqali jamiyatdagi ziyoli kishilarning qalbidagi og'riqli nuqtalari aks ettiriladi. Shuningdek, qissa sarlavhasi orqali ikki xil qarama-qarshi mazmunni anglash mumkin. Birida bu jamiyatda halollik, poklik, haqiqat bilan yashab qolish mumkinmi?, degan kinoya tursa, ikkinchisida yorug' kunlarga bo'lgan ishonch o'z aksini topadi.

Adib ijodida voqelikka nisbatan sinchkovlik, hodisalarga real qarashdek ijodkorona sintez ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, “Asqartog' tomonlarda” qissasi zamonaviy o'zbek adabiyotida shaxs ma'naviy iztirobini psixologik, ramziy shaklda poetik ifodalagan badiiy asar hisoblanadi. Qissada ijodkor va ziyolining ijtimoiy muhitdagi fojiaiy holati, ichki norozilik va o'zlikning izlanishi kabi holatlar asar markaziga qo'yilgan. Asar voqeligi tashqi harakatdan ko'ra ichki kechinmalar orqali rivojlanadi. Qissa institutda bo'lib o'tgan voqealar, anonim anketa, fakultet janjallari va qahramonning do'stlari, Ofiyat bilan bo'lgan suhbatlari atrofida shakllanadi. Qissa qahramoni Mahdi Ashrapov orqali adib insonning ijtimoiy tazyiqlar ostida o'zini yo'qotishi, yolg'izlik va o'zini anglash jarayonini chuqur tahlil qiladi. Qissa “Asqartog' tomonlarda” deb sarlavhalangan, unda yashiringan mohiyatni anglash, qissaning butun mazmunini anglash demakdir. Ma'lumki, tog' obrazi xalq dostonlarda uchraydigan an'anaviy obraz hisoblanadi. Asqartog' nomi “Alpomish”, “Go'ro'g'li” va boshqa dostonlarda uchraydi. Folklorshunos olim Shomirza Turdimov “Go'ro'g'li dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari” deb nomlangan tadqiqotida Asqartog' haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Asqartov – epik tog' bo'lib, mohiyatan uni grek mifologiyasidagi Olimp tog'i bilan qiyoslash mumkin. Etimologik jihatdan qaralsa, “Asqar” so'zi ikki qismdan tashkil topib, “As”(az) – olov, “qar”(qir) – tog' ma'nosidagi so'zlar qo'shiluvidan hosil bo'lgan. Asqar tog'i so'zma-so'z “Olov tog'” mazmunini anglatadi. Aniqroq aytilsa, Asqartov – quyosh tog'i, quyosh makoni yohud xudolar, homiy ruhlar yashovchi tog' demakdir. Asqartog' tasavvurining nisbatan mukammal tasvirini turkiy xalqlar folklor namunalari orasida “Alpomish” dostonining qozoq versiyasi “Alpomish botir” da uchratamiz”[4]. Qissada keltirilgan Asqartog' – oddiy geografik makon emas, balki u muallifning ruhiy vatani, orzu, ichki intilish kabi tushunchalarni anglatadi.

Adibning yana bir “Bu kunning davomi” sarlavhali qissasi bir qarashda sodda ko'rinsa-da, unda hayot anglamlari, vaqt va insonning uzviy bog'liqligi aks etadi. “Bugun” tushunchasi vaqtning eng yaqinligini bildirsa, “davomi” qismi

esa “bugun”ning oddiy tugamasligini, u o'zida kechagi kunning izlarini, ertangi kunning bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarini olib yurishini, ya'ni qahramon hayoti, ichki izlanishi va o'zini topish yo'lining davom etishini anglatadi. Sarlavha o'quvchini shunday fikrga undaydi: qissadagi voqealar bir kunda o'tib ketadigan mayda hodisa emas, balki kelajakdagi katta o'zgarishlarning boshlanish nuqtasidir. Adabiyotshunos K.Hamrayev sarlavha ustida fikr yuritar ekan, uning bir nechta turlarini ko'rsatib o'tadi. Jumladan, hikoya tarkibidan o'sib chiquvchi sarlavhalar, majoziy sarlavha, ruhiy-emotsional sarlavha, xronotop sarlavha kabilar. Bu tasnifning hikoya tarkibidan o'sib chiquvchi sarlavhalar, majoziy sarlavha kabilar o'z ichida yana turlarga bo'linadi. Biz tahliliga kirishgan “Bu kunning davomi” qissasi xronotop sarlavhani aks ettiradi. Xronotop sarlavha “...ikki xil bo'lib, birinchisi zamon-vaqt bilan, ikkinchisi ma'lum makon-joyga aloqador sarlavha hisoblanadi. Zamon-vaqt sarlavhali hikoyalarda vaqt tasviri birlamchi bo'lib, chegaralanganligi bilan xarakterlidir. Shu sabab bu tipdagi hikoyalarda hayot voqealari va inson tabiati siqiy vaqt oralig'ida kuzatiladi. Ko'p hollarda lahza, kun, tun, tong, peshin va shom kabi vaqt o'lchovlari inson obrazining ruhiy olamini va ma'naviy qiyofasini tasvirlashga xizmat qiladi”[5]. Demak, zamon-vaqt asosli sarlavhalarda vaqt tasviri birlamchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bu vaqt esa ko'pincha chegaralangan bo'ladi. Shu sabab, bunday asarlarda voqealar va qahramon ruhiy olami qisqa vaqt oralig'ida kuzatiladi. “Bu kunning davomi” qissasida “kun” chegaralangan vaqt o'lchovi bo'lib, “davomi” qo'shimchasi esa voqealar oldin boshlanganini, endi esa shu kun ichida davom etishini bildiradi. Bir kun ichidagi voqealar odatda jadal, ruhiy jihatdan zich bo'ladi. Vaqt qisqaligi sabab yozuvchi diqqatni tafsilot va ichki holatlarga qaratadi. Adib bu “kun”ni qahramon hayotidagi oddiy kun sifatida emas, balki ichki o'zgarishlar, iztirob va ruhiy uyg'oqlik sodir bo'ladigan markaziy vaqt sifatida ishlatadi. Xronotopda vaqt va makon birga ishlaydi, ammo sarlavhada vaqt markazda tursa, makon esa voqea ichida ochiladi. Demak, sarlavha o'quvchini mana shu “kun” ichidagi psixologik voqealarga tayyorlaydi. Qissa bir kunni o'z ichiga qamrab olsa-da, unda bir kunlik emas, balki uzoq vaqtlar davomida shakllangan o'y-xayollar, hayotiy hodisalarning bugungi kundagi ifodasi sifatida ko'rinadi. Asarda qahramonning hayot tarzi – ishgah borish, ishdan qaytish, odamlar bilan muloqot qilish – bir qarashda oddiy va takroriy yumushdek ko'rinadi. Sarlavha esa bu jarayonlarning shunchaki kun o'tishi emas, balki ichki kechinmalarining, o'zini anglash yo'lidagi tajribaning davomiyligi ekaniga ishora qiladi. Bu yerda “davom” so'zi oddiy vaqt birligi emas, hayot tarzi, o'y-fikrlar va izlanishlarning tugamasligini anglatadi. Sarlavha bir vaqtning o'zida falsafiy mazmunga ham ega. Inson hayoti – uzluksiz davom etuvchi kunlarning davomiga qiyos qilinadi. Har bir kun kechaning mantiqiy davomi va hech biri mustaqil, yakkalanib qolmaydi. Bu qissada ham o'z aksini topadi. Qahramon hayotidagi hech bir voqea o'tmishdan uzilmagan, balki o'sha o'tmishning ichida shakllangan. Adibning “Hali hayot bor...”, “Asqartog' tomonlarda” qissalari ham o'zida xronotop sarlavhani aks ettiradi. Birida vaqt sarlavha nomiga chiqarilgan, makon esa asar mazmunida ochiladi. Ikkinchisida makon sarlavhada aks etgan bo'lsa, vaqt voqelik ichida yoritiladi.

Adib hayotining so'nggi damlarida yozilgan “Quuroq” qissasida hayotga, adabiyotga bo'lgan xulosalar kuzatiladi. “Quuroq” qissasi xotira-qissa shaklida yozilgan, muallif hozirgi zamonda turib, o'tmish xotiralari, bolalik kechinmalarini esga oladi. Ba'zida shirin xotiralardan suyunadi, kun ko'rmay o'tgan bolaligini eslab kuyunadi. Dastlab qissa sarlavhasiga e'tibor qarataylik. Quuroq – mayda bo'laklardan ulab, jamlab, hosil etilgan butunlik. O'zbek tilining izohli lug'atida “quuroq”

so'ziga "Ulab-qurab biror narsa hosil qilish uchun yaroqli mato parchasi"[6], deya ta'rif berilgan. Shunday ekan, "Quroq" qissasida ham bolalik xotiralari va bugungi kun voqealari badiiyat kuchi bilan jamlanib, to'planib katta yoshli yozuvchi nigohi ostida komik katarsis uyg'otuvchi murakkab butunlikka aylantirilgan. Voqealar rivoji, xotiralar qissa so'ngiga qadar o'tmish va bugungi kun sintezi asosga qurab boriladi.

Qissada har bir xotira real tasvirlanadi, unda hech qanday to'qimalar, ortiqcha bo'rttirishlar yo'q. Asarning syujet liniyasida bolalik xotiralaridagi tabiiy tasvirlar, ulov mingan bola, qishloq hayoti va undagi odamlarning taqdirleri istifoda etiladi. Agar ijodkor tarixiy haqiqat, real tasvirni o'zi uchun ma'qul bir qolipga solmoqchi bo'lsa, yoki kitobxonga manzur bo'ladigan holga keltirsa, katta xatoga yo'l qo'ygan bo'ladi. Qissa hech qanday qoliplarga solinmagan, muallif tilidan sodda va ravon uslubda yozilgan. "Quroq" – muallif hayotining parchalaridan tikilgan badiiy dasturxon. Kitobxon u orqali o'tmish va bugun voqealari bilan galma-galdan tanishib boradi. Adib qissada faqat hikoya qilib bermaydi, balki o'tmish bilan ruhiy suhbatga kirishadi. Bir qaraganda qissa kulguga boy tasvirlari bo'lganligi uchun satirik asardek tuyuladi, lekin asardagi har bir xotiraning o'z iztirobi bor. "Quroq" muallif hayotining o'tmishi va buguni, yaxshi va yomon kunlari, achchiq va shirin xotiralari tasvirlanganligi uchun ham qayta-qayta o'qiladi. Uni o'qigan kitobxon zerikmaydi, balki uning olamiga sho'ng'ib ketadi. Oltmish yoshni qoralagan qahramon, shahar hayoti – o'n-o'n besh yoshlardagi bola va qishloq hayotiga kontrast qo'yiladi. Bir voqea boshqa bir voqeani yetaklashga xizmat qiladi. Qissada esga olinadigan qishloq manzaralari, maktab yillari, qo'shnilar – bular barchasi muallif

bolaligi o'tgan voqeliklar asosida turgani seziladi. Yozuvchi N.Eshonqul Ahmad A'zam ijodi va uning "Quroq" qissasi haqida shunday deydi: "Biz qissada hayotning eng zavqli, eng go'zal damlari – bolalik damlarining ajib manzarasiga duch kelamiz. Bu xotiralar hayot ko'rpasining eng go'zal quroqlari bilan bezangan. Bu quroqlar – xotiralar Ahmad akaga kasallikni yengishga, payt poylayotgan ajalni haydashga kuch va madad bergan: ularni unutib, insoniylik, mehr-muruvvat, hayotning qaynoq voqealari, hangomalari to'shalib turgan pallalarga qaytargan. Qissadagi eshak bilan bog'liq har bir quroq-hangoma orqali biz inson hayotining turli vaziyatlariga, holatlariga duch kelamiz. Qanday vaziyat bo'lmasin, u baribir hayotga, insonga tegishli, inson qadr-qimmatiga tegishli bo'lib chiqadi. Shu sababli qissadagi har bir xotira-quroqda Ahmad akaning nafasi va irodasi, hayot va odamlar haqidagi xulosasi mavjud"[7]. Qissa orqali muallif o'z ichki dunyosiga sayohat qiladi. Bu asar – adibning hayotidan, bolalik xotiralari, iztiroblari va o'ylaridan tikilgan badiiy quroq bo'lib, unda mehr-muruvvat, do'stlik, sadoqat, olijanoblik, kamtarlik, halollik haqidagi muallifning hayotiy xulosalarini ham ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Ahmad A'zam qissalarining sarlavhasida o'zbek adabiyotida kam kuzatiladigan va poetik jihatdan yangicha yondashuvni ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi qissalariga nom qo'yish bilan cheklanmay, sarlavhaga ramziy va kinoyali mazmun ortadi. Qissa sarlavhalari qisqa shaklda asar mazmunini, ramziy qatlamlarini ochib beradi, kitobxonni mushohadaga chorlaydi, muallifning estetik qarashlarini ifodalovchi kalit vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б.264.
2. Rasulova U. XX asr o'zbek qissachiligi (poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari) – Toshkent: "Qamar media" nashriyoti. 2020. – B. 250.
3. К.Ҳамраев. Ҳикоя композицияси. – Т.: "Nurafshon bussines", 2020. – Б.138.
4. Турдимов Ш. "Гўрўғли" дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. Фан. – Т. 2011. Б.240.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Қ". – Тошкент.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. Б.400.
6. Eshonqul N. Kitob bandasi (maqolalar, esselar). – Toshkent.: Akademnashr, 2022. – B.416.
7. www.ziyouz.com
8. www.ahmadazam.uz